

Ibi axmaq bo'lingchi?

Bir odam bor ertayu kech bosqon bilan kurashadir. Burnining katagi va qulog'ining jimjimasiga hamishalikka qora kuyadan surma qo'ygan. Ya'ni kasbi temirchilik. Ilgarilar shu temirchi bilan juda qalin og'ayni bo'lsak ham bu kunlarda oramizga cho'p tushgan. Zero, ul tojik, men o'zbek. "Ovozi tojik"ning ta'biricha, men tojik maktablariga o'zbek tilini zo'raki va majburiy ravishda kirgizuvchi zolimning o'g'li, ul bo'lsa, zo'rlangan, jabrlangan mazlum tojikning bolasi!

"Ovozi tojik"ning tilicha adovatimiz mana shu yo'sunda tabiiy ravishda ho'kizning shoxidek o'sib chiqgandir.

Kechirasiz o'quvchi. Bandangizdan shu o'rinda nordekkina yolg'onchilik kechdi. Zero, madrasada sig'ai mubolag'ani ko'p o'qig'onman. Haligi temirchi tojikning menga adovati yo'q. Ammo, sizga ta'rifini qilg'onim ho'kizning shoxi faqat mendagina o'sgan edi. SHuning uchun faqat mengina temirchini ko'rganda qovog'imning to'qimini solib, tumshug'imni bir yarim qarich o'stirib o'tar va salomiga javob bermas edim.

Tunov kuni oshsiz kapaniga ermak deb yo'l ustida latta chaynab o'ltirgan edim. Orqamadan birov kelib turtadi... Qarasam o'sha temirchi tojik: Assalomu alaykum. Zardam qaynab, alik o'rniga og'zimga shu gap keldi.

Nima qilarding? Tojik bu muomalaga hayron qoldi: Ibi, jinni bo'lding chi? – Ha, jinni bo'ldim. – Axi, jinni ki bo'libsan, dedi tojik – nega bizga aytmading?! Domlangga hojatim yo'q, dedim. Ibi, ibi, dedi temirchi – axi, biz mullo Qurbini boqib tuxtabmiz, panalatining nimaga foydasi tegsin. Akunki san jinni bo'ling, baxudo, vaqt-da Samarqand qochib ketdi chi? Otash arabasiga paqirak bermasang, baxudo man beray!

Ko'rdimki tojikning so'zi yurakdan, yetmasa deb yonchig'ini ham kovlaydir. To'g'risini aytaymi, og'ayni, dedim. Har qancha mehribonlik qilsang tojikka qil, men bo'lsam domla-xo'jani o'zbekdan kutay. – Ibi, ibi, ha dedi tojik, - Zamon oxir bo'lli –chi? Zamon oxir bo'lmasa ham, dedim men – kechagi "Ovozi tojik"da sening odamlaringdan bittasi xuddi qiyomat qilib yubordi. Ibi, san ham axmaq bo'ling chi?

Axmaq bo'lmasam ham bizdagi "qo'shning ko'r bo'lsa ko'zingni qis" maqoliga bo'yinsindim.

Tojik mendan juda ranjigan edi. Tepindi, g'ijindi, so'kindi, nos otdi va og'Ozida nosi bilan so'radi. SHu gapga aniq xafa bo'lling? Xafa bo'lmaydurgan gapmi?! Hayf xafa bo'liysan, dedi tojik. Mikalay poshshang vaqtida, musulmon oboding vaqtiga, ana boring ki besh yuz yilgi siz o'zbaklarning domullolari maktablarga bo yana madrasalarga tojik tiliga dars ayta ekanlar. Bo yana shu yerga qanday chiqin siyosat bor ekan? Ya'ni ki, shu inqilob bo'lli, maktablar ochilli, o'zbek tiliga kitoblar yozilli. Ya'niki, shu bizning tojik bolalarga yangi kitoblar yo'q bo'lli. Ya'niki, bu yerga majburiyat bor edi, zo'raki yo'q edi. SHuni ki farqiga bormaysan. San ko'p axmaqchi odamsan! – Axmaqchi men emas og'zingga qarab gapir, dedim. Hay, axmaqchining so'ziga bovar qilib, o'rtog'ingdan yuz o'girdi qilasan? Nima bo'lsa ham kishiga og'irida, Mamasharif, dedim. O'rtog'imning oti Mamasharif edi. Sen tashla shundaychiyqin dardi xarina gazetachilarning lofini, dedi Mamasharif. Axi, san zambilchi, man temirchi boyana bizga kinnachi darkor. Agarda darkor boshad lofni gazetachilar ursin! Bizga chi? Axi, biz besh yuz yil ki... Jur, bizning dukonga. Man ki san ablahga bir nabotchoy qilib beray, san ichib "hu" aytgin! ... Bir birimizga bo'lgan hurmatimiz eski holiga qaytdi. Barobar yurishib ko'kchoyga ketdik. Ginani Mamasharif aytgandek, men ham axmaqchilarning o'zlariga havola qildim.

Jo'lqinboy. Yer yuzi. 1925. №2. 6-bet.